

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANISHIDA SHARQ ALLOMALARI QARASHLARI.

Utegenova Dilbar Tagabekovna

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanı 1 - umumiy  
o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqotchanlik o'rni muammosini ilmiy metodologik asoslar haqida ilmiy ma'lumotlar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** muloqot, metod, munosabat, xarakter, suhbat, xulq

Oilada bola tug'ilishi bilan oila a'zolari u bilan muloqotga kirishishga harakat qiladilar. O'tmishda tarbiyada muloqot madaniyati alohida o'rinda turdi. Har - bir qabila, elat o'ziga xos muloqot madaniyati qonun - qoidalarni yaratdi, insoniylik ideal muloqot qonuniyatining asosi hisoblandi. Ota - bobolar muloqot madaniyatida Shiroq, To'maris, Alpomish, kabi afsonaviy qahramonlar tasvirlangan dostonlardan foydalandilar, ular asosida yoshlarni eng yaxshi an'analar ruxida tarbiyaladilar.

Sharq mutafakkirlari qarashlari va ilmiy merosida bolalarga yoshlikdan tarbiya berishga katta e'tibor qaratilganligi koo'rishimiz mumkin. Inson hamisha odamlar qurshovida yashaydi, ijtimoiy muhit sharoitida uning aqliy rivojlanishi, fikrlash qobiliyati rivojlnana boradi. Bunda insonning aqliy rivojlanishi uchun sharoitlar bo'lishi kerak. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergen. Allomalarimiz inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Sharq allomalari fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan muloqoti jarayonida shakllanadi.

VIII asr oxiri, IX asr boshida arab xalifaligining markazi Bag'dodda ilm – fan rivojlandi, yunon olimlaridan Platon, Arestotel, Soqrat, Gippokrat, Galen, Yevklid, kabilarning asarlari arab tiliga tardjima etildi. Xalifa Xorun ar-Rashid o'limidan so'ng uning o'g'li al – Ma'mun xalifa etib tayinlandi. U Bag'dodda ilmiy Markaz–akademiya tashkil etib, unga barcha musilmon o'lkalarining fozillarini to'pladi. Bu Markazda Movarannah, Xurosandan kelgan Muso Xorazmiy, Axmad Farg'oniy, Marvoziy, Marvaruddiy, Javxariy kabi olimlar Bag'dod akademiyasining jahonga mashhur qilishda juda katta faoliyat ko'rsatdilar.

Islom va uning xuquqshunoslik, hadisshunoslik sohalari rivojlandi. Bu davrda Markaziy Osiyo jaxon ilm – fanining, kishilik jamiyatining rivojiga, shuningdek, islom dinining axlokiy – xukukiy tarbiyadagi mavkieiga katta xissa ko'shadi. IX- XII asrlar davomida Markaziy Osiyo jaxonga Xorazmiy, Fargoniy, Ismoil Buxoriy, At – Termiziy, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Ismoil Jurjoniy,

Margiloniy, Zamaxshariy, Maxmud Qoshg'ariy kabi ulkan olimlarni taqdim etdi. Bu olimlar o'z ijodlari, asarlari bilan o'z xalqlarining, umuman, Markaziy Osiyoning shuxratini olamga yoydilar.

Sharq mutafakkirlari Ahmad al Farg'oni, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Ismoil al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Najmaddin Kubro Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz insonning ta'lif olishi, odob-axloqi, muloqoti va boshqa tarbiyasi haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlarni qoldirganlar.

Sharq mutafakkirlari muloqotni inson kamolotida muhim jihatlardan biri deb hisoblaydi. Insonning odobliligi, axloq va ilimi muloqot orqali atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishda kata ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Shunday ekan mutafakkirlarimiz muloqotni insonhhayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, yoshlarimizda muloqot (munosabat) odobiga alohida e'tibor qaratishimiz maqsadga muofiqdir.

O'rta asr ijtimoiy – falsafiy fikr taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan mutafakkir Abu Nasr Forobiy (873 - 950) nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti xaqidagi ta'lomi ta'lif – tarbiya soxasida katta axamiyatga ega. Forobiy ta'lif-tarbiyaga bg'ishlangan asarlarida ta'lif – tarbiyaning muhumligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lif – tarbiya usullari va uslubi xaqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shaxri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Ixso – al - ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asrlarida ijtimoiy – tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Forobiy muloqot odobi deganda bilimdonlik, donolik va muloxazali bo'lish, kamtarlik, adolatliylik, rast so'zlash kabi xislatlarni tushunadi. Shuning uchun xam Forobiy muloqot tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq xolda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida

qaraydi. Bundan biz Forobiyning muloqot xulq me'yorlari ifodasi sifatidagina emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida muloqot talqin etganligini ko'ramiz.

Forobiy inson tarbiyada kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan muloqotda bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunga ta'lif-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lif-tarbiya insonni aqliy va axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri muloqotda (munosabat) bo'ladi.

Forobiyning muloqot yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l-ta'lif va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi deydi. Ta'lif nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lif so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har

ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligi muloqot jarayonida bo'y ko'rsatishi ta'kidlaydi. Xulosa qilib aytganda, Forobiy komil insonni shakllantirish, insonning o'z mohiyati bilan ijtimoiyligi, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Ibn Sinoning fikricha, muloqot insonlarning bir biriga ta'sir etish va ijtimoiy jarayonda munosabatga kiririshish madaniyati bo'lishini muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning ahloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini, ahloqiy tarbiya masalalarini falsafiy - pedagogik asosda chuqur yoritib berib insondagi yaxshi sifatlarini ko'ra olgan.

Olim muloqot odobi, yaxshilik, kamtar va insoniylik masalalariga ko'p asarlarida to'xtalib o'tgan edi. Chunonchi, u o'zining «Luqmoni Hakimning aziz farzandiga qilgan yuz nasixati» asarida insonlarni kamtar bo'lishiga da'vat etib, shunday yozadi:

Boyliking mi?dorini do'st-u dushmanga bildirma. Manman va takabbur bo'lma, Xoksor va kamtarin bo'l.

Ibn Sinoning mulohot odobi bobidagi qarashlarida sof insoniy hislatlar, munosabatlar, muloqot odobi qoidalari me'yorlari o'z ifodasini topgan.

Ibn Sino yosh bolalarni tug'ilgandan boshlab tarbiyalash va muomilaga o'rgatish masalasiga alohida e'tibor beradi. Bola tug'ilgandan boshlab oyoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borish lozim. Bola gapira boshlaganidan unga muloqot sirlari va madaniyatidan sabog' bermoqlik lozimligini alohida ta'kidlagan. Bola o'spirinlikka o'tish darvri tarbiyasi xaqida alohida to'xtalib, bu davrda ularda xulq atvor shakllanadi va muomila madaniyati shakllangan darajada bo'ladi. Bola xulq atvorini, muloqotining bir xil muvozanatda bo'lishi uchun uni keskin g'azablanishdan, qattiq qo'rquvdan va uyqusizlikdan saqlash zarur.

Ibn Sinoning yozishicha, insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri – o'zining yomon axloqiy xislatlarini anglab, ularni yo'qotishga intilishdir. Atrofdagilar bilan so'zlashganda muloqot madaniyatiga rioya qilishidir. Shuningdek uning axloqiy karashlari go'zallik, nafosat xaqidagi fikrlari bilan hamohangdir. Yuqoridagi fikrlarni tasdiqlagan holda, haqiqatdan ham muloqot madaniyati insonning axloqiy fazilatlaridan hisoblanadi. Chunki muloqot jarayonida bir jihatdan insonning tashqi qiyofasi orqali uning ichki dunyosi ham namoyon bo'ladi. Insonning muomala madaniyatiga qarab uning ichki olami ham namoyon bo'ladi. Dono xalqimizda bir purma'no naql bor:"Sevdiradigan ham til, bezdiradigan ham til". Bu naql bejizga aytilmaydi. Zero bir og'iz shirin so'z bilan vayron ko'ngillar obod bo'ladi. Shuningdek, bu fikrlarga qo'shimcha qilgan holda xalqimizda asrlar davomida tildan - tilga o'tib kelgan va o'z tasdig'ini topgan maqollardan keltirib o'tamiz:

1. Bir og'iz shirin so'z bilan ilon inidan, yomon so'z bilan musulmon dinidan qaytadi.
2. Tilga e'tibor , elga ye'tibor.

Ibn Sino fikrlarining asl mohiyati shundaki, inson hayot taraqqiyoti davomida olgan barcha bilim, ko'nikma va malakalarini ijtimoiy muhit ta'sirida jonli voqelikka aylantirib boradi va uning aytishida inson qanchalik ko'p bilim egallasa uni namoyon bo'lishi, ta'sir kuchi muloqotda namoyon bo'lib jamiyatda tarbiyaviy sifati namoyon bo'lishini ta'minlashini takidlaydi.

Beruniyning «Qadimiylardan qolgan yodgorliklar» asarida quyidagicha ifodalangan:

Olim muloqot belgilari sifatida yaxshilik, to'g'rilik,adolat, kamtarlik, saxovat, poklik, go'zallikka intilish kabilarni ilgari suradi. Bularning barchasini u yaratgan asarlaridagi ijtimoiy -falsafiy fikrlariga bog'lab tushuntirgan.

Mirzo Ulug'bekning fikricha, muloqot inson odob va axloqida katta o'rinni egallaydi. Insonlar orasidagi tarbiya, odamgarchilik, mehr-muhabbat, do'tslik, birdamlik, jasurlik, mardlik, ahillik, tarbiyalanganlik o'zaro munosabatda yuzaga chiqishini, muloqot insonning go'zal hulqi ekanligini ta'kidlaydi.

Sharq mutafakkirlariing ta'limgardiyaga oid qarashlarida inson qadri, bilimi, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmono'stlik, xushhulqlik, mardlik va jasurlikni, kamtarlikni umuman olganda insoniy fazilatlarni targ'ib etadi. Yuqorida mutafakkirlarimizning muloqot odobi haqidagi qarashlarini o'rganish chog'ida muloqot odobi inson hayoti va uning jamiyatdagi o'rnini belgidashda muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bor angladik. Shuning uchun ham o'quvchilarining muloqot odobini tarbiyalash, tarbiyaning muhim tamonlaridan hisoblanib o'quvchilarda muloqot odobi shakillanishi jamoda va jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim o'rinni tutadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Suvonov O.va boshqalar. "Pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi". "Xalq ta'limi", 2004 yil, № 5.
2. Pedagog.uz
3. library.ziyonet.uz
4. ru.wikipedia.org